

YAQIN QARINDOSHLAR O'RTASIDAGI NIKOHLARNING SALBIY OQIBATLARI

Botirova Zarifaxon Adhamjon qizi

*Abu Ali Inb Sino nomidagi Qo'qon jamoat salomatligi texnikumi o'qituvchisi.
Qo'qon, O'zbekiston.*

Annotatsiya. *Mazkur maqolada yaqin qarindoshlar o'rtasidagi nikoh rishtalarini bog'lash, erta nikohlar, dunyo mamlakatlarida yaqin qarindoshlar orasidagi nikoh ko'rsatkichlari, buning oqibatlari, diniy qarashlar, genetik buzilishlar, irsiy kasalliklar yuzaga kelishi, qarindoshlar nikohi bo'yicha tarixiy ma'lumotlar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *erta nikoh, oila, TORCH infeksiyasi, yaqin qarindoshlar nikohi, nikoh yoshi.*

Аннотация. *В данной статье приводятся исторические сведения о заключении брачных уз между близкими родственниками, ранних браках, показателях заключения брака между близкими родственниками в странах мира, его последствиях, религиозных воззрениях, генетических нарушениях, возникновении наследственных заболеваний, браке родственников.*

Ключевые слова: *ранний брак, семья, TORCH-инфекция, брак близких родственников, брачный возраст.*

Abstract. *This article provides historical information on the binding of marriage bonds between close relatives, early marriages, indicators of marriage between close relatives in the countries of the world, its consequences, religious views, genetic disorders, occurrence of hereditary diseases, marriage of relatives. .*

Key words: *early marriage, family, TORCH infection, marriage of close relatives, marriage age.*

Sog'lom avlodni dunyoga keltirish, o'sib kelayotgan yosh avlodni jismonan sog'lom, aqlan yetuk voyaga yetkazish uchun Davlatimiz tomonidan barcha imkoniyatlar va shart-sharoitlar yaratilmoqda. Tug'ma nogironlikning oldini olish, o'sib kelayotgan sog'lom avlodni kamol toptirishda sog'liqni saqlash tizimining roli va mas'uliyatini kuchaytirish va doimiy ravishda o'tkazib kelinayotgan ishlar samaradorligini yanada oshirish maqsadida ko'plab Davlat dasturlari qabul qilinmoqda.

Faqat farzandni dunyoga keltirish emas, balki ularni ma'naviy va jismoniy kamol toptirib, hayotga mustaqil qadam qo'yishiga sharoit yaratish, sog'lom avlodni voyaga yetkazish va sog'lom kelajakni ta'minlash – bu bizning eng ustuvor vazifamizdir.

2008 yilda O'zbekiston Respublikasining "Bolalar huquqlarini kafolatlash" haqidagi Qonuni qabul qilingan va ushbu qonunning 1 bobida 18 yoshgacha bo'lgan shaxs hali BOLA hisoblanadi, deb yozilgan. O'smir qizlarimizning yosh turmush qurishlari, ayniqsa, qarindosh-urug'lar o'rtasidagi nikohlar, yosh ona bo'lishlari turli tibbiy, ma'naviy va ijtimoiy

jiddiy asoratlar, avlodlar salomatligiga putur yetkazadigan salbiy omillarni tug'dirishi shakshubhasizdir.

Oila qurishga o'ta noziklik bilan puxta o'ylab, keyin yondoshish kerak, qolaversa kelajakda baxtni qo'ldan boy bermaslik va atrofdagilarga zahmat yetkazmaslik uchun to'g'ri asosda yo'lga qo'yish muhimdir. Zero, oila mustahkam bo'lar ekan jamiyat mustahkam bo'ladi. Hozirgi kunda ba'zilarni yaqin qarindoshlar bilan quda-anda bo'lishga intilishi kuzatilmoqda. Buning sababi o'laroq qarindosh-urug'chilikni yanada mustahkamlash va mol-mulkni begonalar qo'liga o'tib ketishidan muhofazalash deb ko'rsatilmoqda. Lekin, olimlar odatda qarindoshdan boshqa bilan oila qurishga targ'ib qiladi. Boisi millatchilik, urug'chilik keskinlashib ketishini oldini olish, qonni yangilashdan iborat.

Jumladan, antropolog Luis Genri Margon quyidagi fikrni aytib o'tadi: "Qarindoshchilik aloqalari insoniyat paydo bo'lgandan beri shakllanib kelgan. Uning o'z tarixi va mantiqi bor. Qarindosh urug'chilik vasfiylikka ko'ra emas, o'zaro mutanosiblikka ko'ra bo'ladi. Shuning uchun ham qarindoshdan qiz oldi-berdi qilish fanda qat'iyankor inkor qilinmaydi. Ammo ehtiyot bo'lgan yaxshi". O'z navbatida tibbiyot ham bunday nikohga nisbatan ta'qiqlangan "qizil chiziq"ni qo'yadi. Zero, katta ilmiy izlanishlar shuni ko'rsatadiki, bunday nikoh bo'lajak farzandning salomatligiga salbiy ta'sir qiladi. Bunday nikohni Eksugami deb yuritiladi. Misol uchun yaqin qarindoshlar o'rtasidagi nikohda 82 ga yaqin kasalliklar kelib chiqishi aniqlangan. Yana shuni aytish mumkinki, qarindoshlar o'rtasidagi nikohda kasallik ta'siri 100dan 7 yo 8% ni tashkil qilsa, begona bo'lganlar o'rtasidagi ko'rsatkich 100 dan 5 % ni tashkil qiladi. Jumladan, yo'ldosh gematomasi, TORCH infeksiyasi, talassemiya, muskul distrofiyasi, yelka-kurak yuzasi distrofiyasi, kolorektal saraton, temir moddasining oshib ketishi, vazni keskin yengilligi, nogiron va aqliy o'sishda yo rivojlanishida salbiy ta'sirlar yuzaga keladi.

Genetikada yaqin qarindoshlar o'rtasidagi nikohda irsiy kasalliklar va tug'ma nuqsonlar qon bir bo'lganligi uchun oila qurganda keskin darajada oshib ketishi kuzatiladi. Ammo, begonadan oila qurganda esa kuchli kuchsiz tomonni yengadi. Ya'ni immuniteti kuchli bo'ladigan bo'lsa, boshqa tomonni o'sha kasalligiga qarshi tura oladi.

Biroq, buning teskarisi bo'lishi ham mumkin. Agar ushbu avlod vakillarida, boshqa avlod vakillarida uchramaydigan yetuk aql-idrok, chiroy, uzoq umr va kuch-quvvat yana bir qancha yaxshi sifatlar bo'lsa, irsiy kasalliklar bo'lmasa qarindoshdan olish mumkin. Bir kishi hikoya qilib beradi. Yaqin qarindoshlar orasida nikoh rishtasi bo'ldi. Vaqti soati kelib farzandlar dunyoga keltirdi, ammo, uch farzandi voyaga yetmasdan irsiy kasallik tufayli vafot etdi. To'rtinchisi esa ko'zi ojiz bo'lib tug'ilganligini aytib o'tadi.

Qarindoshlar va qarindosh bo'lmaganlar orasidagi nikohdagi irsiy kasalliklar 1:8 dir. Ichki kasalliklar bo'yicha mashhur professor Ahmad Istishoriy bu haqida: "Jahonning ko'p joylarida "Yaqin qarindoshlar orasidagi nikohda faqat kasallik darajasi ortadi", deyish har bir holatga ham to'g'ri kelavermaydi". Ba'zan bunday nikoh ijobiy bo'lishi, ba'zan esa salbiy bo'lishi mumkin. Agarda yashab turgan jamiyatida o'sha avlod vakillaridan boshqalarda kasallik darajasi 12 % dan yuqori bo'ladigan bo'lsa unda qarindoshlar bilan quda bo'lsa

bo'ladi. Misol uchun Italiyada kamqonlik kasalligi darajasi 10 % ni, Keniyada esa 40 % ni tashkil qiladi.

Demak, u yurtlarga ko'chib borgan oilada bu kasallik bo'lmaydigan bo'lsa, o'z qaridoshi bilan quda bo'lgani yaxshi. Shuni ham unutmaslik kerak, yaqin qarindoshlar orasidagi nikoh rishtasi avloddan avlodga o'tib, davom etmasligi kerak. Aks holda bu salbiy holatga, yana tug'ilajak farzandalarning bo'y va vazn jihatidan pastlab ketishiga olib keladi.

Mutaxassislarning aytishicha yaqin qarindoshlarning nikohi yetti avloddan keyin ham o'z salbiy ta'sirini ko'rsatishi mumkin. Zero, Rasullulloh sollollohu alayhi vasallam: "Juft tanlashga e'tibor beringlar. Tengidan qiz olinglar va tengiga qiz beringlar". (Ibn Moja rivoyati). Yana boshqa rivoyatda Oisha roziyallohu anhodan "Albatta qon tortadi, ayollar aka-ukalari va opa-singillari singari farzandlarni dunyoga keltiradilar". Shuningdek, faqihlarimiz yaqin qarindoshdan quda bo'lishni zaif avlod vujudga kelishi mumkin deya aytadilar. Ba'zi fikhiy manbalarda ham: "Begona anjab, yaqin qarindosh asbar" deb aytishgan. Buning ma'nosi qarindoshlar o'rtasidagi nikohda sabr va chidam talab qilinadi. Zero, qarindosh urug'chilikni saqlab qolish, silai rahmni uzmaslik uchun ba'zan yomon bo'lsa ham tishni-tishga qo'yib chidashga to'g'ri keladi. "Anjab" ning ma'nosi fazrandlar qobiliyatli va iqtidorli bo'ladi deganidir.

Payg'ambar alayhissalomning o'zlari ham ammalarining qizlari Zaynab binti Jahsh roziyallohu anhoga uylanganliklari, qolaversa qizlari Fotima roziyallohu anhoni jiyani amakilarining o'g'li Ali roziyallohu anhuga xotin qilib berganliklari borasida rivoyatlarda kelgan bo'lishi mumkin. Ammo, Payg'ambar alayhissalomning nasl-nasabni va jismoniy sihat-salomatlikni e'tiborga olib qilgan va yana hikmatini Allohgina biladigan ishlardandir.

Demak, yaqin qarindosh bilan nikohda bo'lish muboh bo'ladi. Endi qachonki, sog'liq, qarindosh-urug'chilikni mustahkamligiga putur yetishi yo ajrashib ketish ehtimoli yuqori bo'lsa, unday holda hukm makruhlik va undan ham yomon darajagacha o'zgarishi mumkin.

Qadimgi Misrda ham Fir'avnlr aka-singilning nikohiga ruxsat berganlar. Misol Tutanxamonning ota-onasi bitta aka-singil ekanligi aniqlangan. Bu hodisa to Zulqarnayn Misrni bosib olganga davom etgan. U bunday nikohga chek qo'ygan. Yana Kleopatra ikkinchini ham aytishimiz mumkin. U o'z akasi Batlimus oltinchi u o'lgandan so'ng ukasi Batlimus sakkizinchiga turmushga chiqqanligi manbalarda keltiriladi. Shuningdek, Rim imperatori Iniko ham faqat aka-singilning nikohinigina joriy qilganligi, yo Forsning ayrim podshohlari o'z qiziga uylanganligi majusiy-zardushtiy dini bunga ruxsat berganligiga tarix shohid.

Yevropa davlatlarida yaqin qarindoshlar orasidagi nikoh melodiylar 600 gacha yashirincha bo'lgan. Qizig'i shundaki, AQShning ayrim shtatlarida yaqin qarindoshlar o'rtasidagi nikoh qonunan ta'qiqlangan.

Statistik ma'lumotlarga qaraganda ba'zi mamlakatlarda yaqin qarindoshlar orasidagi nikoh yuqori ko'rsatkichni tashkil qiladi. Misol uchun Saudiya arabistonida 57,7 % ni, Quvaytda 40 % ni, Falastinda 49 % ni, Misrda 38 % ni g'arb davlatlarida 1-2 % ni tashkil qilsa, sharq va Markaziy Osiyo davlatlarida 20-30 % ni tashkil qiladi.

Xo'sh, biz aytayotgan yaqin qarindoshlar kim. Bu haqida faqihlarimiz ammaning qizi, o'g'li yo tog'a yo xolaning qiz yo o'g'li deya bayon qilishib, ular bilan oila qurish mumkinligiga ittifoq qilishgan. Lekin shar'iy vasfida turlicha yondoshishgan.

☒ Karohiyatli (Yaxshi emas); (Shofe'iy va Hanbaliy).

☒ Muboh (Shuni unutmash kerakki, molikiylar ham dindagi kufu'ni, sovchilarni rad qildagan darajadagi ayblardan xoli bo'lishni shart qilishgan.)

Ibn Qudoma rohimatulloh: "Begona bilan oila quring. Sababi farzand qobiliyatli va zukko bo'ladi".

Olimlarning aniqlashicha va skrining tekshiruv natijalariga ko'ra, qarindoshlar nikohidan tug'ilgan bolalar qarindosh bo'lmagan nikohlardan tug'ilganlarga nisbatan 22,5 foyizga ko'p nobud bo'lgan. Chunki qarindosh-urug'lardagi bir xil o'xshash kasalliklar biologik qonunlarga asosan tug'iladigan farzandlarda ikki hissa ko'payib va ikki hissa kuchayib yuzaga chiqadi, kasalliklarga qarshi kurashish immuniteti kamayadi. Tug'ma irsiy kasalliklar va turli nogironlik holatlari keyingi ikkinchi avlod vakillarida yuzaga chiqishi isbotlangan. Ko'pincha mashhur shaxslarning qobiliyatlari aynan bolalarida emas, balki ularning nevaralarida ko'proq namoyon bo'lishining o'zi oddiy misoldir. Yaqin qarindoshlar o'rtasidagi nikohlarga chek qo'yilsa, yer yuzida kasallikka chalinish ancha qisqaradi. Nikoh qanchalik begona shaxs bilan birga tuzilsa, avlodda qon almashinib yangilanadi va tug'ilajak farzandlar shunchalik sog'lom bo'ladi. Nikoh uchun eng maqbul yosh qizlar uchun – 20-24 yosh, yigitlar uchun esa 24-26 yoshdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Parpieva, O. R., & Djalalidinova, O. O. (2022). Reproductive Health Issues. Texas Journal of Medical Science, 14, 58-61.

2. Muydinova, Y. G., & Parpiyeva, O. R. (2021). Reproktiv salomatlik. O'quv qo'llanma.

3. Абдиева Сетора Ахмаджон кизи //ФАКТОРЫ РИСКА РВОТЫ БЕРЕМЕННЫХ// О'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. 25-SON. 20.12.2023. 156-163.

4. Muydinova, Y. G., & Parpiyeva, O. R. (2021). Reproductive health.

5. Parpiyeva, O. R., & Dzhalloldinova, O. O. (2022). The role of Valeology in raising a healthy generation. Texas Journal of Multidisciplinary Studies, 13, 1-3.

6. Tojalievna, M. M., & Ravshanovna, R. Y. (2023). Pregnancy during a pandemic of coronavirus infection COVID-19 risks and effects on the unborn child. Texas Journal of Medical Science, 18, 1-5.

7. Ruzibaeva, E. R., & Mamatkulova, M. T. (2023). VACCINATION AGAINST CORONAVIRUS INFECTION IN FERGANA REGION FOR THE PERIOD 2021-2022. World Bulletin of Public Health, 19, 240-242.

8. Рузибаева, Е. Р., & Маматкулова, М. Т. (2023). СТАТИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ФАКТОРОВ РАЗВИТИЯ РАКА ШЕЙКИ МАТКИ ЗА ПЕРИОД 2017-2021 г. г. ПО ФЕРГАНСКОЙ ОБЛАСТИ. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(2), 632-637.
9. РУЗИБОЕВА, Е. Р., & КАРИМОВ, А. Р. ФАКТОРЫ, ПРЕДРАСПОЛАГАЮЩИЕ К РАЗВИТИЮ РАКА ШЕЙКИ МАТКИ СРЕДИ ЖЕНЩИН ФЕРГАНСКОЙ ОБЛАСТИ ЗА ПЕРИОД 2017-2021 Г. Г. ИНТЕРНАУКА Учредители: Общество с ограниченной ответственностью "Интернаука", 31-32.
10. Рузибоева, Е. Р., & Каримов, А. Р. (2021). Эпидемиологические особенности рака шейки матки.
11. Parpieva, O. R., Muydinova, E., Safarova, G., & Boltaboeva, N. (2020). Social and psychological aspects of a healthy life style. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 10(11), 1364-1368.
12. Parpiyeva, O. (2023). "KO'KRAK BEZI SARATONI BILAN KASALLANGAN AYOLLAR OVQATLANISHINI KORREKTSIYALASHNI ILMIY ASOSLASH" MAVZUSI BO'YICHA ADABIYOTLAR TAHLILI. Евразийский журнал медицинских и естественных наук, 3(12) 168-177.
13. Rakhmanovna, P. O. (2022). Nutrition and diet in breast cancer. Texas Journal of Medical Science, 7, 27-30.
14. Rakhmanovna, P. O., & Ugli, O. A. D. (2021). Modern Scientific Research In Oncological Diseases. The American Journal of Medical Sciences and Pharmaceutical Research, 3(03), 117-121.
15. Абдукаримова, Н. У., Муйдинова, Ё. Г., Парпиева, О. У., & Мухамедиева, И. Б. (2015). ОЦЕНКА РЕПРОДУКТИВНОГО ЗДОРОВЬЯ ЖЕНЩИН ГОРОДСКОЙ И СЕЛЬСКОЙ МЕСТНОСТИ ФЕРГАНСКОЙ ОБЛАСТИ. In Актуальные проблемы медицины в России и за рубежом (pp. 102-104).
16. Parpieva, O. R., Muydinova, E., & Safarova, G. (2021). Breast cancer. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(11), 482-485.
17. Parpiyeva, O. R. (2023). THE IMPORTANCE OF THE NURSE'S ACTIVITY IN CARRYING OUT PATRONAGE OF ONCOLOGICAL PATIENTS. Евразийский журнал медицинских и естественных наук, 3(8), 53-56.
18. Парпиева, О. Р. (2023). КЎКРАК БЕЗИ САРАТОНИ ҲАҚИДА ТУШУНЧА. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(3), 446-454.
19. Makhbuba Mamatkulova // Early Prenatal Diagnosis And Prevention Of Birth Damage Development In Children (Spina Bifida - A Defect In The Development Of The Nervous System)// The American Journal of Medical Sciences and Pharmaceutical Research. Vol. 03. Issue 04-16. April 30, 2021. 117-126 pages.
20. Парпиева, О. Р., & Хайриллов, Х. И. (2023). ЗНАЧЕНИЕ УНИВЕРСАЛЬНОЙ ПРОГРЕССИВНОЙ МОДЕЛИ В РАБОТЕ С МАТЕРЯМИ И ДЕТЬМИ В СИСТЕМЕ

ПЕРВИЧНОГО ЗВЕНА. SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH, 1(10), 141-145.

21. Парпиева, О. Р., & Хайриллов, Х. И. (2023). ОНКОЛОГИК БЕМОРАЛАР ПАТРОНАЖИНИ ОЛИБ БОРИШДА ТИББИЁТ ХОДИМЛАРИ ФАОЛИЯТИНИНГ АҲАМИЯТИ. Scientific Impulse, 1(10), 936-940.

22. Kurbanova, I., Kamalova, D., Djalolova, D., & Akhmedov, M. (2021, November). Dynamical analysis of improvement of the needle mechanism in sewing machines. In AIP Conference Proceedings (Vol. 2402, No. 1). AIP Publishing.

23. Kamalova, D. (2023). YOD TANQISLIGINING TA'SIRI. Евразийский журнал академических исследований, 3(4), 135-139.

24. Камалова, Д. А. (2019). Изменения в практике оплаты труда на производстве. Международный научно-исследовательский журнал, (10-2 (88)), 67-69.

25. Камалова, Д. А., & Искандарова, Ш. Т. (2013). Организация эффективных медико-санитарных мероприятий в борьбе с алкоголизмом и наркоманией. Вестник экстренной медицины, (3), 213-214.

26. Zafarbek Mirzaolimovich Komilov, & Qo'chqorov Oybek G'ulomovich. (2023). UBAYDULLON KANHOL – XVI ASR O'RTA SHARQ YIRIK OKULISTI . Новости образования: исследование в XXI веке, 2(15), 217-220.

27. Комилова Дилдора Алишеровна. (2023). АДАПТАЦИЯ И АДАПТАЦИОННЫЕ РЕЗЕРВЫ ОРГАНИЗМА. Новости образования: исследование в XXI веке, 2(15), 221–223.

28. Kamalova, D. (2023). The value of the universal progressive model in working with mothers and children in the primary care system. Texas Journal of Multidisciplinary Studies, 20, 60-62.

29. Рузматова, Х. К., Камалова, Д. А., & Мухаммадова, Г. К. (2023). НАРОДНОЕ ЛЕЧЕНИЕ РАКА ЛЕГКИХ. "GERMANY" MODERN SCIENTIFIC RESEARCH: ACHIEVEMENTS, INNOVATIONS AND DEVELOPMENT PROSPECTS, 9(1).

30. Abdiyeva, S. (2023). THE IMPORTANCE OF EFFECTIVE TECHNIQUES IN INCREASING VOCABULARY RANGE OF STUDENTS. Innovative Development in Educational Activities, 2(3), 129-132.

31. Abdiyeva, S. A., & Rahimova, N. B. (2021). MODERN PROBLEMS OF OBSTETRICS AND GYNECOLOGY. Экономика и социум, (12-1 (91)), 3-6.

32. Abdiyeva, S. A., & Haydarova, Z. A. (2021). EARLY TOXICOSIS IN PREGNANCY. Экономика и социум, (11-1 (90)), 3-6.

33. Abdiyeva, S. A., & Haydarova, Z. A. (2021). THE VALUE OF THE PSYCHE PREGNANT IN THE DEVELOPMENT OF EARLY TOXEMIA. Мировая наука, (11 (56)), 3-6.